

Yondosh mavzu:
yuklarni tashish.

Massa, vazn,
tonna, sentner.



1. Har bir yuk qaysi transportda tashilishini aniqlang.



$$28 \cdot (36 + 42) - 1\,178$$

2972



$$(95 - 78) \cdot 79 + 1\,629$$

4004



$$5\,978 - (768 : 4 + 1\,782)$$

1006




Og'ir jismlarning massasini katta birliklar: tonna va sentnerlarda o'lchash mumkin.

O'qilishi: bir tonna ming kilogrammga teng.

Yozilishi: **1 t = 1000 kg**

O'qilishi: bir sentner yuz kilogrammga teng.

Yozilishi: **1 q = 100 kg**



2. Berilgan o'lchov birligiga aylantiring.

$$2\,000 \text{ kg} = \square \text{ t}$$

$$1\,700 \text{ kg} = \square \text{ q}$$

$$320 \text{ q} = \square \text{ t}$$

70. Tonna va sentner



3. Qulay massa birliklarida hisoblang.

$$243 \text{ kg} + 4 \text{ t}$$

$$7 \text{ t} - 21 \text{ q}$$

$$12 \text{ q} - 628 \text{ kg}$$

$$32 \text{ t} + 12 \text{ q}$$

$$27 \text{ t} - 344 \text{ kg}$$

$$4 \text{ t} + 629 \text{ kg}$$



4. Joylashtiring:

a) o'sish tartibida:


20 kg, 20 q, 20 t, 240 kg, 8 kg, 800 kg;

b) kamayish tartibida:

900 kg, 90 t, 390 kg, 3 q, 93 q, 30 q.



5. Massasi 2 q 86 kg bo'lgan dastgoh yog'och yashikda tashiladi. Yog'och yashikning massasi dastgohning massasidan 11 marta kichik. Umumiy yukning massasi qancha?




6. Yashikda yozilgan "netto" so'zi yashik ichidagi narsaning qadoqsiz sof massasini bildiradi. Olmaning sof massasini toping.



Yashik bilan
birga massasi

31 kg 200 g



Yashikning
massasi

3 kg 600 g



Massa "netto" –
yashiksiz massasi

?



7. Agar baliqning netto massasi:

$$(5680 \cdot 420 + 5789400) : 5000 - 1495 \text{ g};$$

bankaning massasi:

$$(71 \cdot 5010 - 355455) : 15 \text{ g bo'lsa, konservali bankaning umumiy massasini toping.}$$



8. Madina buvisiga jo'natma yubormoqchi. Jo'natmaning massasi 8 kg. Unga eng arzon yetkazib berish usulini tanlashga yordam bering.



Har bir kilogramm
jo'natma uchun
67 000 so'm.



Jo'natma uchun
100 000 so'm +
jo'natmaning har bir
kilogrammi uchun
23 000 so'm



Hamma jo'natma
uchun 300 000 so'm.



9. Batareykali fonarcha 15 000 so'm turadi. Yusuf o'z puliga fonarcha yoki 4 ta batareyka sotib olishi mumkin. Uning qancha puli bor? Batareyka qancha turadi?



10. Hisoblang.

$$4 \text{ q } 7 \text{ kg} + 2 \text{ t } 98 \text{ kg} - 1 \text{ t } 361 \text{ kg}$$

$$(5 \text{ t} - 9 \text{ q } 44 \text{ kg}) : 4$$

$$3 \cdot (7 \text{ kg } 24 \text{ g} - 5 \text{ kg } 9 \text{ g})$$



11. Masalaning savollariga javob bering.

Onam qarindoshlari uchun yong'oq, mayiz va quritilgan o'rikdan jo'natma yig'di. U 3 kg 270 g yong'oq, yong'oqdan 1 kg 150 g ko'p mayiz, mayizdan 960 g kam quritilgan o'rik qo'ydi.

a) Jo'natmaning massasi qancha?

b) Jo'natmaning massasi 10 kg dan oshmasligi kerak.

Onam bu qoidaga amal qilganmi?